YANGI O‘ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON QADRI AZIZ!

YANGI BEKOBOD

Toshkent viloyati Bekobod tumani ijtimoiy-siyosiy gazetasi

Gazeta 1931-yildan chiqa boshlagan

2026-yil 13-may, №18 (8036)

HECH QACHON UNUTMAYLIK, MILLIY BIRLIK VA HAMJIHATLIK – BIZNING BEBAHO BOYLIGIMIZ, BARCHA YUTUQ VA G‘ALABALARIMIZNING MUSTAHKAM ASOSIDIR.

Shavkat MIRZIYOYEV



Sultonboy DEHQONOV olgan surat.

“VATAN RAVNAQI, TINCHLIGI VA HIMOYASI YO‘LIDAGI QAHRAMONLIK UNUTILMAYDI”

Vatan tinchligi, el-yurt ravnaqi uchun qilingan har bir ezgu ish, albatta, tarix zarvaraqlariga yoziladi. To‘kilgan har tomchi qon, chekilgan har qatra azob avlodlar qalbida hech qachon unutilmaydi. Aksincha, yillar o‘tgan sari ushbu buyuk tarix tobora teran ma’no kasb etib, yosh avlod uchun ulkan saboq bo‘lib shakllanib boradi.

Xususan, Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan buyuk g‘alaba ham insoniyat yuragida o‘chmas xotiradir. Millionlab insonlar yostig‘ini quritgan, millionlab xonadonlarga kulfat keltirgan ushbu qirg‘inda O‘zbekiston xalqi ham qanchalar mashaqqat va azob-uqubat tortgani bugun hech kimga sir emas. Tarixning o‘sha qorong‘i va beomon kunlarida 7 yoshdan 70 yoshgacha bo‘lgan yurtdoshlarimiz ham jang maydonlarida, ham front ortida o‘z botirligi va fidokorona mehnati bilan ulkan jonbozlik ko‘rsatganlar.

Ikkinchi jahon urushida qozonilgan G‘alabaga butun O‘zbekiston xalqi qatori mard va jasur bekobodliklarning ham qo‘shgan hissasi beqiyos. Bekobodlik botir yigitlar qattol urushning ilk kunlaridan so‘nggi lahzasigacha olovli jang maydonlarida qahramonlik ko‘rsatishgan. Aniq raqamlarga murojaat qiladigan bo‘lsak, Ikkinchi jahon urushiga Bekobod tumanidan jami 2 807 nafar kishi yuborilgan.

Afsuski, ularning ko‘pi Vataniga, oilasi bag‘riga qaytmadi. Ota-onasi, yor-u do‘stlari, farzandlari yuragida abadiy armon va aziz xotiraga aylandi. Ular garchi halok bo‘lsalar-da, o‘z yurtiga qarata otilgan o‘qlarga ko‘ksini qalqon qilib, bizlarga tinch va osoyishta hayot in’om etdilar.

Urushdan eson-omon qaytgan tumandoshlarimiz esa umrining oxiriga qadar yurtiga sadoqat bilan xizmat qilib, odamlar ko‘z o‘ngida tirik xotira, urush dahshatlarini aks ettiruvchi jonli tarix bo‘lib yashab o‘tdilar. Ayniqsa, Bekoboddan urushga borib, ikki oyog‘i va bir qo‘lidan ayrilib qaytgan, shundan so‘ng ham bir umr matonat bilan yashagan Xolbo‘ta Qurbonov barcha uchun chinakam iroda va sabot namunasi bo‘ldi. Bunday qahramonlarni bir lahza bo‘lsa ham unutishga aslo haqqimiz yo‘q.

Muhtaram Yurtboshimizning tegishli topshiriqlariga binoan, o‘tganlarning aziz va muqaddas yodini yanada ulug‘lash, ularga bo‘lgan ehtiromni aks ettirish maqsadida “Yangi Bekobod” markaziy maydoni va Xotira xiyoboni majmuasi bunyod etilib, foydalanishga topshirildi.

Tumanimiz markazida joylashgan ushbu muhtasham maydon va ko‘rkam xiyobon, qaytadan o‘rnatilgan mo‘tabar siymo — Motamsaro ona haykali, mardlik lavhalari, xotira nuri, millat fidoyilari, mamlakatimizning mudofaa qudrati va chegaralarimiz mustahkamligi ramzlari aks etgan barelef, Bekobod tumanidan urushda ishtirok etgan bobolarimizning ism-sharifi bitilgan mangulik kitoblari, muazzam ustunlar va ayvonlar, tumanimiz tashkil topganining 100 yilligi munosabati bilan bunyod etilayotgan muzey, tinchlik va faxr-iftixor timsoli bo‘lgan muhtasham arka hamda yurtimiz mustaqilligining 35 yilligiga o‘ziga xos ramz bo‘lgan 35 metrlik serviqor bayrog‘imiz bilan buyuk tarix va Yangi O‘zbekiston tutashgan nuqta sifatida yaxlit manzara kasb etmoqda.

Ushbu muhtasham va ko‘rkam majmua, umuman, tuman aholisi uchun qulayliklar yaratish maqsadida qad ko‘tarayotgan barcha bunyodkorlik obyektlari muhtaram Prezidentimizning Bekobod tumaniga bo‘lgan e’tiborlari, mehr va g‘amxo‘rliklarining yaqqol ifodasidir.

Majmuaning ochilish marosimi “9-may — Xotira va qadrlash kuni” bayram tadbiriga ulanib ketdi. Sana munosabati bilan o‘tganlar xotirasi yodga olinib, yoshi ulug‘ insonlar, faxriylar va mehnat ahliga alohida ehtirom ko‘rsatildi.

Tadbir davomida Motamsaro ona haykali poyiga gulchambarlar qo‘yildi. “Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo‘lidagi qahramonlik unutilmaydi” shiori ostida tashkil etilgan tadbirda Xotira maydoni gavjum bo‘ldi. Unda xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi deputatlari, viloyat hokimligi mas’ullari, “Nuroniy” jamg‘armasi vakillari, tuman hokimligi, huquq-tartibot idoralari, korxona va tashkilotlar vakillari, yoshlar, Afg‘on urushi qatnashchilari, mehnat faxriylari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Bugun yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik, xalqimizning farovon hayoti ana shunday jasur va fidoyi insonlarning mardonavor kurashi evaziga bunyod bo‘lganini hech qachon unutmasligimiz lozim. Ajdodlar xotirasini e’zozlash, ularning jasorati va matonatini yosh avlod qalbiga singdirish har birimizning muqaddas burchimizdir. Zero, xotira bor ekan — millat barhayot, qadr bor ekan — inson azizdir.

Sarvinoz SHERALIYEVA

QUTLOV

YANGI BEKOBODNING MAYDONIGA KEL!

Farhodlar o‘lkasi, beklarning yurti,
Qalblarda lovullar muhabbat o‘ti,
Bek bo‘lib tug‘ilgay beklarning zoti,
Bulbuli she’r o‘qir, sayroniga kel,
Yangi Bekobodning maydoniga kel.
Chinorlar ekildi, yashnagay bog‘ing,
Ne-ne ko‘ngillarni xushlagay bog‘ing,
Odamlar tilidan tushmagay bog‘ing,
Muattar chaman bu, rayhoniga kel,
Yangi Bekobodning maydoniga kel.
Tuman tarixini o‘qing varaqlab,
Azizlar, moziydan ketmang yiroqlab,
Bobolar o‘tmishni turar so‘roqlab,
Moziyni anglamoq imkoniga kel,
Yangi Bekobodning maydoniga kel.
Xotira uyg‘onar, jaranglar Zafar,
Bizga kelajakdan kelgandek xabar,
Chorlaydi ulug‘ yo‘l, ulug‘ bir safar,
Muqaddas go‘shaning arkoniga kel,
Yangi Bekobodning maydoniga kel.
Farg‘ona ustasi — maydon me’mori,
Yaratmoq, uyg‘otmoq bo‘ldi shiori,
Unga qanot berdi shamol diyori,
Beklar obod etgan gul koniga kel,
Yangi Bekobodning maydoniga kel.
Zafarga tutashgan har on, har gali,
Bunda mujassamdir dunyo sayqali,
Mamnun boqib turar ona haykali,
Do‘st bo‘lsang azizim, do‘st yoniga kel,
Yangi Bekobodning maydoniga kel.
Yurtboshing sen bilan, qo‘llaguvchi bor,
Ko‘ngil ozodadur, yo‘q aslo g‘ubor,
Ertamiz, albatta, bo‘lgay ulug‘vor,
Yaqin kel, millatning sarboniga kel,
Yangi Bekobodning maydoniga kel.
Bir yil o‘tib ketdi, qarang birpasda,
Zavqin sig‘dirolmay bitta nafasda,
Butun O‘zbekiston Sizga havasda,
Qo‘shil, obodlikning karvoniga kel,
Yangi Bekobodning maydoniga kel.
Do‘stona suhbatga shaydir bu o‘lka,
Eng aziz, muqaddas joydir bu o‘lka,
Mehmonga peshvoz-u boydir bu o‘lka,
Kel, do‘stning xushchaqchaq xandoniga kel,
Yangi Bekobodning maydoniga kel.
Millatning tarixi — millat g‘ururi,
O‘chmaydi dillarda xotira nuri,
Jasorat, matonat — Vatan sururi,
Kel, yurtdosh, mardlarning makoniga kel,
Yangi Bekobodning maydoniga kel.
Ilm-u ma’rifatning baland mash’ali,
Islomiy markazdir to‘lib-toshgani,
Olam oqib kelar, ayon shoshgani,
Aql-zakovatning oshyoniga kel,
Yangi Bekobodning maydoniga kel.
Yangi O‘zbekiston yangi tumani,
Faxrdir nazarda bo‘lib turgani,
Hamjihat bo‘laylik uni qurgani,
Har kuning bir bayram, to‘y oniga kel,
Yangi Bekobodning maydoniga kel.
Mirzo Bobur qadam qo‘ygan maskan bu,
Xos kentiga Sirdaryodan suzgan u,
Shu lahzani tarix qilib yozgan u,
Ko‘ngilning hayrati, hayroniga kel,
Yangi Bekobodning maydoniga kel.
Dunyo tarixida bordir Dalvarzin,
Unutmang moziyni o‘rganish farzin,
Anglab yetoldikmi, hayotning tarzin,
Quyosh charaqlagan ayvoniga kel,
Yangi Bekobodning maydoniga kel.
Poyezdlar kelarkan shamolday uchib,
Bekobod kentining bag‘rini quchib,
Endi yurmagaysiz ko‘p vaqtdan kechib,
Agar ko‘ray desang, yo‘l yoniga kel,
Yangi Bekobodning maydoniga kel.

Ashurali BOYMUROD

Pilla – 2026

Yurtimizda pillachilik sohasini rivojlantirish, mahallalarda ipak qurti parvarishini samarali tashkil etish hamda aholi bandligini ta’minlash borasida izchil ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, tumanimizda bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlar o‘zining amaliy natijasini bermoqda.



BIRINCHI HOSIL QABUL QILINDI!

Mahallalarda ipak qurti parvarishi bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni o‘rganish maqsadida tuman hokimi o‘rinbosari Xurshida Qurbonova hamda tuman IIB mas’uli Nodira Qosimovalar pillakorlar xonadonlarida bo‘lib, ularning mehnat jarayoni, yaratilgan sharoitlar va parvarish ishlari bilan yaqindan tanishdilar. Uchrashuvlar davomida pillakorlarning fidokorona mehnati, o‘z ishiga mas’uliyat bilan yondashayotgani alohida e’tirof etildi.

Tumanning mehnatkash aholisi mavsum davomida ipak qurtini parvarishlash, sifatli hosil yetishtirish va belgilangan rejani ortig‘i bilan bajarish yo‘lida astoydil mehnat qilmoqda. Bu jarayonda tajriba, sabr-toqat va tinimsiz izlanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Quvonarlisi, allaqachon tuman pillaxonasida ipak qurtining ilk hosili tantanali ravishda qabul qilindi. Ushbu jarayon pillakorlarning mashaqqatli mehnati, zahmati va fidoyiligining yorqin ifodasi bo‘ldi. Zero, pillachilik nafaqat daromad manbai, balki oilalar farovonligini ta’minlash, mahallalar iqtisodiy salohiyatini oshirishda ham muhim o‘rin tutadi.

Hirmoningizga baraka, aziz pillakorlar! Sizlarning sharafli mehnatingiz tufayli yurtimiz iqtisodiyoti yanada mustahkamlanib, mahallalarimiz obod va farovon bo‘lib bormoqda.

Lobar JUMABOYEVA

Deputat minbari

ZAMONAVIY LOYIHA — YANGI NATIJA



Bugungi kunda yurtimizda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan investitsiya loyihalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bekobod tumanida ham bu borada amalga oshirilayotgan ishlar hudud taraqqiyoti va aholi farovonligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xalq deputatlari Bekobod tumani Kengashi deputatlari — O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan saylangan Shohida To‘raqulova, O‘zbekiston Ekologik partiyasidan saylangan Ulug‘bek Rahimjonov hamda kotibiyat bosh mutaxassisi Abdurahim Utegenov O‘zbekobod mahallasida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari bilan yaqindan tanishdilar.

Tashrif davomida hududdagi istiqbolli loyihalardan biri — “SAIDOLIM CHINNI EXSPORT” MChJ faoliyati alohida e’tirof etildi. Korxona tomonidan zamonaviy muzlatkich majmuasi tashkil etilgani hududda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sifatli saqlash, ularning eksport hajmini oshirish hamda mahsulotlarning bozorbopligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ayni paytda korxonada saqlanayotgan mahsulotlar asosan Rossiya va Tojikiston bozorlariga eksport qilinayotgani mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Bu esa nafaqat eksport geografiyasining kengayishiga, balki hudud iqtisodiy salohiyatining mustahkamlanishiga ham xizmat qilmoqda.

Deputatlar loyiha faoliyati bilan tanishar ekan, uning samaradorligi, yaratilgan yangi ish o‘rinlari, aholi bandligini ta’minlashdagi o‘rni hamda eksport ko‘rsatkichlarini yanada oshirish istiqbollari yuzasidan fikr almashdilar. Ta’kidlanganidek, bunday loyihalar mahalliy iqtisodiyot rivojiga kuchli turtki berib, tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Bugun Bekobodda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli investitsiya loyihalari hududning iqtisodiy qudratini oshirib, xalq farovonligini yuksaltirish yo‘lida muhim qadam bo‘lmoqda. Eng muhimi, bu kabi bunyodkorlik ishlari “Inson qadri uchun” tamoyili asosida aholi manfaatlarini ta’minlashga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatlidir.

Shohida TO‘RAQULOVA,
Xalq deputatlari
Bekobod tumani Kengashi deputati

Sport yangiliklari



BEKOBODDA FINAL — HAQIQIY FUTBOL BAYRAMIGA AYLANDI!

Bekobod tumanida DXX kubogi doirasida tashkil etilgan mini futbol musobaqasi sportsevarlar uchun unutilmas lahzalarga boy bo‘ldi. Ayniqsa, musobaqaning final uchrashuvi haqiqiy futbol bayrami ruhida o‘tdi.

Hal qiluvchi bahsda Oqtepa va Guliston mahallalari jamoalari o‘zaro maydonga tushib, muxlislarga keskin va murosasiz o‘yin namoyish etdilar. Uchrashuvning har bir daqiqasi shiddatli hujumlar, keskin kurashlar va yorqin vaziyatlarga boy bo‘ldi. Tribunalarni to‘ldirgan muxlislarning olqishlari futbolchilarga yanada kuch va ruh bag‘ishladi.

Dramatik ruhda kechgan final o‘yinida Oqtepa mahallasi jamoasi 3:2 hisobida g‘alaba qozonib, musobaqa chempioniga aylandi. G‘olib jamoa maydonda iroda, ahillik va yuqori sport mahoratini namoyon etib, munosib ravishda bosh sovrinni qo‘lga kiritdi.

Shuningdek, Guliston mahallasi jamoasi ham munosib qarshilik ko‘rsatib, oxirgi daqiqalargacha kurash olib bordi. Ularning matonati va sportga bo‘lgan sadoqati muxlislar olqishiga sazovor bo‘ldi.

Bu kabi sport musobaqalari mahallalar o‘rtasida do‘stlik va hamjihatlikni mustahkamlash, yoshlarni sog‘lom turmush tarziga jalb etish hamda ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Darhaqiqat, futbol — bu shunchaki o‘yin emas. U birdamlik, iroda, jamoaviylik va g‘alabaga bo‘lgan ishonch timsolidir.

Talatbek UMIRZOQOV
“Oqtepa” MFY raisi

BEKOBODLIK SPORTCHI PARIJDA KUMUSH MEDALNI QO‘LGA KIRITDI

Fransiyaning Parij shahrida 2–3-may kunlari o‘tkazilgan “World Rowing Para Rowing Regatta Paris – 2026” xalqaro musobaqasi O‘zbekiston sportchilari uchun muvaffaqiyatlarga boy bo‘ldi. Quvonarlisi, ushbu nufuzli musobaqada yurtimiz delegatsiyasi sovrindorlar safidan joy oldi.

Musobaqada Bekobod tumanining Qo‘qoni mahallasida yashovchi iste’dodli sportchi Abdurahmonov Abdumutal ham munosib ishtirok etdi. U para akademik eshkak eshishning “PR3 Mixed Coxed Four” yo‘nalishida yuqori mahorat va katta matonat namoyon etib, faxrli ikkinchi o‘rinni egalladi.

Bu natija sportchining uzoq yillik mehnati, qat’iyati va sportga bo‘lgan cheksiz ishtiyoqining yorqin ifodasidir. Ayniqsa, xalqaro maydonda O‘zbekiston bayrog‘ining baland ko‘tarilishi barchamiz uchun faxr va g‘urur bag‘ishlaydi.

Ta’kidlash joizki, Abdurahmonov Abdumutal bundan avval ham para Osiyo o‘yinlari sovrindori sifatida yurtimiz sporti rivojiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Uning bugungi muvaffaqiyati ham yosh sportchilar



uchun katta motivatsiya va ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi.

Bekobod ahli sportchimizning ushbu yutug‘ini katta quvonch bilan qarshi oldi. Ishonamizki, Abdumutal bundan keyin ham xalqaro arenalarda yurtimiz sharafini munosib himoya qilib, yanada yuksak marralarni zabt etadi.

Sportchimizga kelgusi musobaqalarda ulkan zafarlar va omad tilaymiz!

Dilshoda SAIDOVA

SAYYOR QABUL



FUQAROLIK MASALASI IJOBIY HAL ETILDI

Bekobod tumani hokimining sayyor qabulida Normatova Malikaning yaqin qarindoshlari tomonidan murojaat qilinib, M.Normatova 1967-yildan buyon Toshkent viloyati Bekobod tumani “Bunyodkor” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida yashab kelayotgani, biroq O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini ololmagani sababli bir qator huquqlardan, jumladan ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam, ruhiy kasalliklar bo‘yicha tibbiy hamda reabilitatsiya xizmatlari, psixiatriya dispanserlarida bepul davolanish va dorilar bilan ta’minlanish kabi imkoniyatlardan foydalana olmayotgani bildirilgan.

Mazkur murojaat Bekobod tumani Adliya bo‘limi tomonidan o‘rganib chiqildi. O‘rganish jarayonida M.Normatova “Bunyodkor” mahalla fuqarolar yig‘inida oila a’zolari bilan hozirga qadar yashab kelayotgani aniqlanib, tegishli hujjatlar — 10.09.2025-yildagi mahalla dalolatnomasi, 1968-yil 1-aprelda Sobiq Ittifoq davrida berilgan tug‘ilganlik haqidagi akt yozuvi, 1986-yilda berilgan pasport nusxasi (IX-IOC 620736), mehnat daftarchasi nusxasi hamda boshqa hujjatlar to‘plandi.

“O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasiga muvofiq, fuqaroligi bo‘lmagan shaxs — O‘zbekiston hududida doimiy yashab turgan, O‘zbekiston fuqarosi bo‘lmagan va boshqa davlat fuqaroligiga mansubligi tasdiqlanmagan shaxs hisoblanadi.

Qonunning 5-moddasi “a” bandiga ko‘ra, 1992-yil 28-iyul holatiga qadar O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashagan, chet davlat fuqaroligiga ega bo‘lmagan hamda O‘zbekiston fuqaroligini olish istagini bildirgan shaxs fuqarolikka mansub deb e’tirof etilishi mumkin. Shuningdek, 6-moddaga asosan 2005-yil 1-yanvargacha doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatda turgan va ilgari chet davlat fuqarosi bo‘lmagan shaxslar ham fuqarolikni olish huquqiga ega hisoblanadi. O‘zini O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat qilgan kunga qadar O‘zbekiston Respublikasida kamida o‘n besh yildan buyon doimiy yashab kelayotgan va mazkur davr mobaynida chet davlat fuqaroligida bo‘lmagan shaxs O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olinadi” deya keltirilgan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansublikni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lmagan taqdirda, ushbu holat sud tartibida aniqlanishi belgilangan.

Yuqoridagilarga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ–3666-son qarori hamda Adliya vazirligi va Oliy sudning qo‘shma ko‘rsatmasiga muvofiq, Bekobod tuman Adliya bo‘limi tomonidan fuqaro M.Normatova manfaatida Bekobod tumanlararo fuqarolik sudiga “O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashaganlik faktini tasdiqlash to‘g‘risida” ariza kiritildi.

Mazkur ariza Fuqarolik ishlari bo‘yicha Bekobod tumanlararo sudi sudyasi R.Alimjanov tomonidan har tomonlama, to‘liq va xolisona ko‘rib chiqilib, Adliya bo‘limi tomonidan kiritilgan ariza qanoatlantirildi.

Endilikda Normatova Malikaga O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini rasmiylashtirish hamda fuqarolik pasportini olish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, u fuqaro sifatida barcha huquq va imtiyozlardan foydalanish huquqiga ega bo‘ldi.

XABARDORMISIZ?!

TADBIRKORLAR UCHUN JARIMA TIZIMI YANADA LIBERALLASHTIRILADI

Prezidentimiz tomonidan joriy yilning 13-aprel kuni tadbirkorlik subyektlariga nisbatan moliyaviy jarimalarni qo‘llash tartibini yanada liberallashtirish, bu borada ortiqcha byurokratik to‘siqlarni qisqartirish hamda davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyati ustidan sud nazorati samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar bilan tanishildi.

Bugungi kunda moliyaviy jarimalarni qo‘llash amaliyotida tadbirkorlar uchun qator muammolar saqlanib qolayotgani qayd etildi. Xususan, ayni paytda jarimalarning aksariyati vakolatli organlar, qolgan qismi esa sudlar tomonidan qo‘llanilayotgani sud nazoratini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Shu munosabat bilan joriy yil 1-oktyabrdan moliyaviy jarimalarni ixtiyoriy to‘lashni rag‘batlantiruvchi yangi va yagona tartibni joriy etish taklif qilindi. Unga ko‘ra, tadbirkorlik subyekti vakolatli organning qarori topshirilgan kundan boshlab bir oy ichida jarimaning 50 foizini to‘lasa, qolgan qismini to‘lashdan ozod etiladi.

Shuningdek, jarimani olti oy davomida teng ulushlarda bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini yaratish nazarda tutilmoqda. Bunda qaror topshirilganidan so‘ng bir oy ichida jarima summasining oltidan bir qismi to‘lansa, mazkur tartib avtomatik ravishda amal qiladi.

Sud nazoratini kuchaytirish maqsadida vakolatli organning moliyaviy jarimani qo‘llash to‘g‘risidagi qarori sud tomonidan bekor qilingan yoki haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, undirilgan mablag‘larni 15 kun muddatda qaytarish mexanizmini belgilash taklif etildi. Agar ushbu muddat buzilsa, kechiktirilgan har bir kalendar kun uchun Markaziy bank asosiy stavkasidan kelib chiqqan holda foiz hisoblanishi nazarda tutilmoqda.

Moliyaviy jarimalarni qo‘llash jarayonlarini raqamlashtirishga ham alohida e’tibor qaratildi. Biznes-ombudsman tomonidan yuritiladigan “Yagona davlat nazorati” axborot tizimida tadbirkorlik subyektlariga nisbatan qo‘llanilgan moliyaviy jarimalarning elektron reyestrini joriy etish taklif qilindi.



Vakolatli organlarning qarorlari qabul qilinganidan keyin elektron raqamli imzo bilan mazkur tizimga kiritilishi shart bo‘ladi. Axborot tizimiga kiritilmagan va elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanmagan qarorlar haqiqiy emas deb hisoblanadi hamda ular asosida jarima undirilmaydi.

Shuningdek, mobil ilova orqali moliyaviy jarimalar hisobini yuritish, ularni monitoring qilish va onlayn to‘lash imkoniyatini yaratish, manfaatdor idoralarning axborot tizimlarini o‘zaro integratsiya qilish zarurligi qayd etildi. Soliq to‘lovchi — tadbirkorlik subyektining shaxsiy kabineti orqali moliyaviy jarima to‘g‘risidagi qarorlar ustidan onlayn shikoyat berish va shikoyat kiritilishi bilan qaror ijrosini avtomatik to‘xtatib turish imkoniyatini joriy etish nazarda tutilmoqda.

Taqdimotda huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash tartibini unifikatsiya qilishga qaratilgan “Huquqiy ta’sir choralari to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish taklifi bildirildi.

Davlatimiz rahbari tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, ularni qonunga rioya etgan holda faoliyat yuritishga rag‘batlantirish, jarima qo‘llash amaliyotida adolat va shaffoflikni ta’minlash eng muhim vazifalardan ekanini ta’kidladi.

Ubaydulla MIRZAYEV, Bekobod tumani Adliya bo‘limi DXM direktori

TIBBIY OGOHLANTIRISH

BOLALAR SALOMATLIGIDAGI JIDDIY XAVF

Bugungi kunda bolalar salomatligini asrash jamiyatimiz oldidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda bolalar orasida qon bilan bog‘liq og‘ir xastaliklar — onkogematologik kasalliklar uchrashi ortib borayotgani shifokorlar va ota-onalarni jiddiy tashvishga solmoqda.

Mazkur kasalliklar ichida eng ko‘p uchraydigani leykemiya, ya’ni qon saratonidir. Ushbu xastalikda organizmdagi qon hujayralari noto‘g‘ri rivojlanib, sog‘lom hujayralar o‘rnini asta-sekin kasallangan hujayralar egallaydi. Natijada organizmning himoya qobiliyati susayib, turli asoratlar yuzaga keladi.

Afsuski, kasallikning dastlabki belgilari ko‘pincha oddiy holatlar bilan adashtirib yuboriladi. Bolaning tez charchashi, rangining oqarishi, sababsiz isitma kuzatilishi, tanada ko‘karishlar paydo bo‘lishi yoki tez-tez shamollashi e’tibordan chetda qolmasligi kerak bo‘lgan muhim belgilar hisoblanadi. Ayrim hollarda oyoq-qo‘llarda og‘riqlar, bo‘yin yoki qo‘ltiq sohalarida shishlar paydo bo‘lishi ham mumkin.

Ko‘pchilik ota-onalarni qiynaydigan savol — bu kasallikning kelib chiqish sababidir. Hozircha uning yagona aniq sababi mavjud emas. Biroq nasliy moyillik, zararli kimyoviy moddalar ta’siri hamda radiatsiya kabi omillar kasallik xavfini oshirishi mumkinligi qayd etiladi.

Eng muhimi, zamonaviy tibbiyot imkoniyatlari tufayli bugungi kunda ushbu kasalliklarni davolash imkoniyati mavjud. Ayniqsa, xastalik erta aniqlansa, bolalarning sog‘ayib ketish ehtimoli ancha yuqori bo‘ladi. Davolash maxsus dori vositalari yordamida bosqichma-bosqich olib boriladi va bu jarayonda shifokor nazorati muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois ota-onalar farzandi salomatligiga befarq bo‘lmasligi zarur. Bola organizmidagi har qanday g‘ayrioddiy o‘zgarish jiddiy signal bo‘lishi mumkin. “O‘tib ketadi” degan qarash bilan vaqtni boy berish esa og‘ir oqibatlarga olib kelishi ehtimoldan xoli emas.

Xulosa qilib aytganda, bolalar orasida onkogematologik kasalliklar xavfi mavjud bo‘lsa-da, hushyorlik, doimiy e’tibor va o‘z vaqtida tibbiy ko‘rikdan o‘tish orqali bu xavfni kamaytirish mumkin. Eng muhimi esa — kasallikni erta aniqlash orqali bolaning hayotini saqlab qolishdir.

Fayoz MAMATQULOV,
Bekobod TTB Xos OSHP mudiri

QISHLOQ XO‘JALIGI

G‘O‘ZA PARVARISHIDA ZAMONAVIY YONDASHUV

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligida yuqori hosil olish nafaqat mehnatga, balki zamonaviy yondashuv va innovatsion texnologiyalarni qo‘llashga ham bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, Bekobod tumani sharoitida kuchli shamollar, suv tanqisligi va tuproq sho‘rlanishi fermerlardan yangicha fikrlashni talab etadi.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, 2026-yilgi mavsumda an’anaviy usullar bilan cheklanib qolmasdan, “aqlli dehqonchilik” tamoyillariga o‘tish davr talabi hisoblanadi. Chunki Bekobodning tabiiy sharoiti g‘o‘za parvarishida ehtiyotkor va ilmiy yondashuvni talab qiladi.

Tumandagi asosiy muammolardan biri — shamol tufayli tuproq namligining tez yo‘qolishidir. Shu sababli mutaxassislar tuproqni to‘liq ag‘darib haydash o‘rniga minimal ishlov berish usulini tavsiya etmoqda. Bu usul yer namligini saqlashga va shamol eroziyasini kamaytirishga yordam beradi.

Sho‘rlangan maydonlarda esa tuproq holatini yaxshilash maqsadida gipslash ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Tuproq tahliliga qarab aniq me’yorda gips qo‘llash yer unumdorligini oshirishga xizmat qiladi.

Nav tanlash masalasi ham dolzarb. Bekobodning issiq va quruq iqlimiga mos, qurg‘oqchilikka chidamli g‘o‘za navlarini ekish yuqori hosil olishning muhim omillaridan biridir. “Sulton”, “Namangan-77” kabi sinalgan navlar bilan bir qatorda yangi seleksiya navlarini sinovdan o‘tkazish ham yaxshi natija berishi mumkin.

Suvni tejash bugungi kunning eng katta talablaridan biri bo‘lib qolmoqda. Shu bois tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini keng joriy etish muhim. Ayniqsa, tungi sug‘orish usuli Bekobod sharoitida namlikni uzoqroq saqlashga yordam beradi. Bu esa suv sarfini kamaytirib, hosildorlikni oshirish imkonini yaratadi.

Shuningdek, mutaxassislar g‘o‘zani barg orqali oziqlantirishga ham alohida e’tibor qaratmoqda. Tarkibida sink va magniy mavjud bo‘lgan zamonaviy o‘g‘itlar o‘simlikning issiq va shamolga chidamliligini oshiradi.

Zararkunandalarga qarshi kurashda esa ekologik xavfsiz usullar muhim ahamiyatga ega. Xususan, biologik himoya vositalari va maxsus tuzoqlardan foydalanish kimyoviy preparatlar iste’molini kamaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Bekobod tumanida yuqori hosil olish uchun tabiat bilan uyg‘un ishlash, suvni tejash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda ilmiy tavsiyalarga amal qilish muhim ahamiyatga ega. Ana shunda g‘o‘za hosildorligini oshirish va mo‘l hosil olish mumkin bo‘ladi.

Aziz ABDUMUTALOV,
Sherali ATAXANOV,
Abdulatif ABDUQODIROV,
O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi
Toshkent viloyati Bekobod tumani bo‘limi Fitosanitar nazorati davlat inspektorlari

QADRIYAT VA EHTIROM

NURONIYLAR — MILLAT TAYANCHI



9-may — Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan Bekobod tumani 48-umumta’lim maktabida Achamayli mahallasining faxrli keksalari ishtirokida samimiy uchrashuv tashkil etildi.

Mazkur tadbir yoshlarda yurtga muhabbat, kattalarga hurmat va milliy qadriyatlarga sadoqat tuyg‘ularini mustahkamlashga xizmat qildi. Uchrashuvda mahalla nuroniylari — Ollanazar Xudoyberdiyev hamda Abdumutal Boboyorov ishtirok etib, o‘zlarining hayotiy tajribalari, bosib o‘tgan umr yo‘llari va bugungi tinch-osuda hayotning qadriga yetish kabi tushunchalar haqida samimiy suhbat olib bordilar.

Keksalar yoshlarga doimo ilm olish, Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish, ota-onani e’zozlash va xalq manfaatini ustun qo‘yish kabi ezgu fazilatlar haqida pand-nasihat berdilar. Tadbir davomida nuroniylarga alohida hurmat va ehtirom ko‘rsatilib, ularning duolari olindi.

Darhaqiqat, nuroniylarimizning hayot yo‘li yosh avlod uchun haqiqiy ibrat maktabidir. Ularning mehnatsevarligi, sabr-toqati va vatanparvarligi bugungi yoshlarni ezgu maqsadlar sari undaydi.

Xalqimiz azaldan keksalarni e’zozlashni yuksak qadriyat deb bilgan. Zero, nuroniylarga hurmat — millat ma’naviyati va insoniylik mezonining yorqin ifodasidir.

Iqboloy ERTABOYEVA,
Bekobod tumani 48-umumta’lim maktabi
ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari

XOTIRA ABADIY — QADR MUQADDAS



9-may — Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan Bekobod tumani 50-umumta’lim maktabida “Xotira abadiy, qadr muqaddas” nomli ma’naviy-ma’rifiy tadbir ko‘tarinki ruhda tashkil etildi.

Tadbirda Bekobod tumani Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘lim mudiri Kamoliddin Pirnazarov ishtirok etib, barcha qatnashchilarni bayram bilan samimiy muborakbod etdi. U o‘z so‘zida yurt tinchligi va xalq osoyishtaligi yo‘lida xizmat qilgan insonlarni yod etish, keksalar va ustozlarni qadrlash xalqimizning azaliy qadriyatlaridan biri ekanini alohida ta’kidladi.

Shuningdek, maktabda uzoq yillar samarali faoliyat olib borgan ustozlarning yorqin xotirasi hurmat bilan yod etildi. Ularning ta’lim-tarbiya yo‘lidagi fidokorona mehnati va yosh avlod kamolotiga qo‘shgan hissasi ehtirom bilan tilga olindi.

Mazkur tadbir doirasida 3-, 16-, 17-, 18-, 19-, 20- hamda 50-umumta’lim maktablari o‘qituvchilari o‘rtasida sportning voleybol turi bo‘yicha musobaqa ham tashkil etildi. Qizg‘in va murosasiz bahslarga boy o‘tgan musobaqa ishtirokchilarga ko‘tarinki kayfiyat ulashdi.

Musobaqa yakunida g‘olib jamoalar sportdagi faolligi, jamoaviyligi va yuqori mahorati uchun munosib taqdirlanib, 50-umumta’lim maktabi tomonidan esdalik sovg‘alari topshirildi.

Bunday tadbirlar yosh avlod qalbida vatanparvarlik, insoniylik va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Rushana KARABEKOVA

USTOZLARGA HURMAT — YUKSAK FAZILAT



9-may — Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan Bekobod tumani 45-umumtalim maktabining bir guruh ustozlari va o‘quvchilari ishtirokida uzoq yillar maktabda samarali faoliyat olib borgan, bugungi kunda nafaqada bo‘lgan qadrli ustozlar holidan xabar olindi.

Mazkur uchrashuvlar oddiy tashrif emas, balki ustozlarga bo‘lgan chuqur hurmat, ehtirom va mehr ifodasi bo‘ldi. Yillar davomida minglab o‘quvchilarga ilm va tarbiya bergan, jamiyat ravnaqi yo‘lida sidqidildan xizmat qilgan ustozlar o‘quvchilarni ko‘rib nihoyatda mamnun bo‘ldilar. Ularning samimiy duolari, hayotiy nasihatlari va iliq so‘zlari barchaning qalbida ulkan taassurot qoldirdi.

Suhbat davomida ustozlar o‘zlarining maktabdagi faoliyati, o‘quvchilar bilan bog‘liq unutilmas xotiralari hamda o‘qituvchilik kasbining sharafli jihatlari haqida so‘zlab berdilar. Ayniqsa, ularning boy hayotiy tajribasi va samimiy tilaklari yosh avlod uchun katta tarbiya maktabi bo‘ldi.

Shuningdek, mahallaning eng keksa nuroniy otaxon va onaxonlari xonadonlariga ham borilib, ularning holidan xabar olindi. Bayram tabriklari va ezgu tilaklar bildirildi.

Bundan tashqari, Afg‘on urushi qatnashchilari xonadonlariga ham borilib, ular bayram bilan samimiy qutlandi hamda esdalik sovg‘alari topshirildi.

Bayram arafasida Bekobod shahridagi Samarqand mahallasida istiqomat qiluvchi, Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, 103 yoshni qarshilagan faxriy nuroniy Tursunboy ota Musurmonqulov holidan ham xabar olindi. Samimiy suhbat davomida otaxonning bosib o‘tgan hayot yo‘li, mardlik va sabr-toqatga boy xotiralari tinglandi.

MA’NAVIYAT MANZILLARI



SAMARQANDGA UNUTILMAS SAYOHAT

Yurtimizning qadimiy va go‘zal shaharlari orasida alohida o‘rin egallagan Samarqand azaldan ilm-fan, ma’naviyat va tarix maskani sifatida dunyoga mashhurdir. Yaqinda 45-maktabning bir guruh ustozlari dam olish kunlarini mazmunli o‘tkazish, tarixiy obidalarni ziyorat qilish hamda ma’naviy hordiq chiqarish maqsadida ushbu ko‘hna va navqiron shaharga sayohat uyushtirdilar. Sayohat esa barcha ishtirokchilarda unutilmas taassurot qoldirdi.

Safar davomida ustozlar avvalo buyuk muhaddis Imom al-Buxoriy majmuasiga tashrif buyurdilar. Muqaddas maskanda yurtimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi hamda yosh avlodning barkamol bo‘lib ulg‘ayishi uchun ezgu tilaklar qilindi. Majmuaning go‘zal me’morchiligi, sokin va fayzli muhiti barchaga o‘zgacha ruhiy taskin bag‘ishladi.

Shundan so‘ng sayohatchilar Registon maydoniga yo‘l oldilar. Dunyo tamadduni durdonalaridan biri hisoblangan ushbu maydon o‘zining betakror salobati, ulug‘vor madrasalari va nafis naqshlari bilan barchani hayratga soldi. Ustozlar tarix zarvaraqlaridan o‘rin olgan maskanda esdalik suratlariga tushib, Samarqandning boy o‘tmishi haqida qiziqarli ma’lumotlarga ega bo‘ldilar.

Go‘ri Amir maqbarasi hamda Bibixonim masjidi ham ziyorat qilindi. Ushbu tarixiy obidalar xalqimizning boy madaniy merosi va buyuk ajdodlarimizning yuksak bunyodkorlik salohiyatidan darak beradi.

Sayohat davomida ustozlar mustaqil O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov maqbarasini ham ziyorat qildilar. Ushbu maskanda yurt tinchligi, ravnaqi va xalq farovonligi yo‘lida xizmat qilgan buyuk inson xotirasi hurmat bilan yod etildi.

Mazmunli va maroqli o‘tgan sayohat maktab jamoasiga katta quvonch, yangi kuch-g‘ayrat va iliq taassurotlar ulashdi. Darhaqiqat, xalqimizda “Yaxshi dam — mehnatga hamdam” degan hikmatli naql bor. Ana shunday sayohatlar inson ruhiyatini tetiklashtirib, mehnat faoliyatiga ilhom va shijoat bag‘ishlaydi. 45-maktab ustozlari Samarqanddan bir olam quvonch va unutilmas xotiralar bilan qaytdilar.

Muqaddam PARDABOYEVA, Bekobod tumani 45-umumta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Fotoreportaj





XOTIRA UYG‘ONSA...

9-may kuni tumanning Yangi Bekobod markaziy maydonida Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan tantanali tadbir bo‘lib o‘tdi.

Mazkur tadbirda Toshkent viloyati va Bekobod tumani hokimligi mas’ullari, huquq-tartibot idoralari, korxona va tashkilotlar vakillari, mehnat faxriylari, yoshlar hamda keng jamoatchilik ishtirok etib, “Matomsaro ona” haykali poyiga gul qo‘yish marosimida qatnashdilar.

Tantanali marosim davomida ishtirokchilar yurt tinchligi yo‘lida jon fido qilgan ajdodlar xotirasini yod etib, ularning jasorati va mardligi abadiy xotirada saqlanishini ta’kidladilar. Shuningdek, tuman ahli va tadbir ishtirokchilari bayram bilan samimiy qutlandi.

Ushbu tadbir Xotira va qadrlash kunining yuksak ma’naviy ahamiyatini yana bir bor namoyon etdi.

Sultonboy DEHQONOV

IJODKOR NIGOHIDA

BEKOBODNING MEHNATKASH “CHUMOLI”LARI

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligiga bag‘ishlangan “Mustaqillik zafarnomasi” kitob-albomini tayyorlash maqsadida ko‘plab fotograf va fotomuxbirlar jalb etilgan bo‘lib, Toshkent shahri, viloyatlar va tumanlarni suratga olish vazifasi mening zimmamga yuklatildi. Ushbu mas’uliyatli va sharafli vazifani bajarish uchun ish boshlaganimga ham o‘n kuncha vaqt bo‘ldi. Navbatdagi manzil — Bekobod tumani va shahri.

Bekobod tumaniga ilk bor 2010-yilda kelganman. O‘shanda talaba edim va O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasining “Ishonch” va “Ishonch – Доверие” gazetalarida fotomuxbir sifatida faoliyat yuritardim. Bekobodga kelishimga jurnalist, Badiiy ijodkorlar uyushmasi a’zosi Sultonboy Dehqonovning “Mehnatkash chumoli” nomli badiiy fotoasari sabab bo‘lgan edi. Toshkent fotolar uyida o‘tkazilgan tadbirda ushbu asarni ko‘rib, chuqur hayratga tushganman va shu sababli Bekobodga borib, ijodkorning asarlari bilan yaqindan tanishish istagi paydo bo‘lgan.

Niyatim amalga oshgach, “Ishonch” gazetasida “Hikmat izlayotgan odam” nomli bir sahifalik ocherk-maqolam chop etilgan. O‘shandan buyon ustoz sifatida Sultonboy akaning maslahatlariga amal qilib, uning ijod maktabini o‘zim uchun namuna qilgan holda fotografiya san’atida bir qator yutuqlarga erishdim.

Oradan yillar o‘tdi. Bugun yana Bekobod tumanidaman. Hozirgi Bekobod men ilgari ko‘rgan Bekobodga o‘xshamaydi — ancha o‘zgaribdi. Yangi ko‘priklar, yo‘llar, dam olish maskanlari va xotira xiyobonlari bunyod etilibdi. Bular orasida eng diqqatga sazovori — “Yangi Bekobod” gazetasining faoliyat yuritayotgani meni ham quvontirdi, ham hayratga soldi. Chunki gazetaning rang-barang sahifalari, ayniqsa, yosh ijodkorlarga keng o‘rin berilayotgani e’tiborga loyiqdir. Haqiqatan ham bu holat tahsinga sazovor, zero bugungi yoshlar ertamizning haqiqiy egalaridir.

Xullas, Bekobod tumanidan bir olam zavq, hayajon va ko‘plab fotolavhalar bilan poytaxtga qaytdim. Tumanda hali amalga oshiriladigan ishlar ko‘p. Men bu ishlar mehnatkash xalq tomonidan o‘z yetakchilari bilan birgalikda amalga oshirilishiga ishonaman.

Nazira BOYMURODOVA,
O‘zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a’zosi, fotomuxbir



FUTBOL CHEMPIONATI

USTOZ XOTIRASIGA BAG‘ISHLANDI



Bekobod tuman Sport maktabida ko‘p yillar davomida sport rivoji yo‘lida fidokorona xizmat qilgan marhum Muxitdin Akramov xotirasiga bag‘ishlangan o‘smirlar va kichik o‘smirlar o‘rtasidagi Respublika ochiq chempionati yuqori saviyada tashkil etildi.

Mazkur musobaqa yosh avlodni sportga keng jalb qilish, futbol sport turini yanada ommalashtirish, iqtidorli yosh futbolchilarni kashf etish hamda ustozning sport sohasidagi munosib mehnatini yod etish maqsadida o‘tkazildi.

Chempionatda respublikamizning turli hududlaridan tashrif buyurgan jamoalar ishtirok etib, maydonda murosasiz va qiziqarli bahslar olib borishdi. Yosh futbolchilar o‘zlarining texnik mahorati, jismoniy tayyorgarligi hamda g‘alabaga bo‘lgan intilishini namoyon etdilar.

Musobaqaning tantanali ochilish marosimida ustoz M.Akramovning sport rivojiga qo‘shgan hissasi, yoshlarni tarbiyalashdagi xizmatlari va insoniy fazilatlari alohida e’tirof etildi. Tadbirda ustozning yaqinlari, sport faxriylari, murabbiylar hamda keng sport jamoatchiligi ishtirok etdi.

Bellashuvlar davomida maydonda haqiqiy futbol muhiti hukm surdi, tomoshabinlar chiroyli gollar va qizg‘in uchrashuvlarning guvohiga aylandilar. Musobaqa yakunida g‘olib va sovrindor jamoalar diplom, medal hamda esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

Bunday musobaqalar yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, sportga bo‘lgan qiziqishni oshirish hamda kelajakda yurtimiz sharafini munosib himoya qiladigan yetuk sportchilarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahongir SULTONOV, Bekobod tuman Sport maktabi yo‘riqchi-uslubchisi

Bekobod shamoli

KO‘RINMAS KUCH VA UNING IQTISODIYOTGA TA’SIRI



Ba’zan u oddiy shamoldek tuyuladi, ammo Bekobod hududida esadigan bu kuchli havo oqimi tabiat va iqtisodiyotga birdek ta’sir ko‘rsatadigan muhim omildir. Bekobod shamoli nafaqat iqlim hodisasi, balki hudud taraqqiyotiga bevosita ta’sir etuvchi kuchdir.

Bekobod O‘zbekistonning janubiy hududlaridan biri bo‘lib, o‘zining strategik joylashuvi bilan ajralib turadi. U Tojikiston Respublikasi va Sirdaryo viloyati bilan chegaradosh bo‘lib, bu holat hududning iqlimiy xususiyatlarini ham belgilaydi. Hududning “Xo‘jand darvozasi” deb ataluvchi tabiiy-geografik yo‘lak yaqinida joylashgani Bekobod shamolining kuchayishiga asosiy sababdir. Aynan shu yo‘lak orqali o‘tuvchi havo massalari siqilib, tezligini oshiradi. Tog‘lar va tekisliklarning o‘zaro uyg‘unlashuvi esa shamol yo‘nalishini belgilaydi. Sirdaryo daryosi yaqinligi ham hudud mikroiqlimiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Bekobod shamoli O‘zbekistondagi eng kuchli mahalliy shamollardan biri sanaladi. U asosan sharqiy va janubi-sharqiy yo‘nalishdan esib, ko‘pincha Farg‘ona vodiysi tomonidan keladi. “Xo‘jand darvozasi”dan o‘tayotganda esa uning kuchi yanada ortadi. Ba’zan shamol butunlay tinib qolishi ham mumkin — bu uning o‘zgaruvchanligini ko‘rsatadi. Sirdaryo tomon esganda esa u “Xovos shamoli” nomi bilan ham ataladi.

Shamolning shakllanishi asosan atmosfera bosimining farqlanishi bilan bog‘liq. Sovuq va iliq havo massalari to‘qnashganda, havo yuqori bosimli hududdan past bosimli hududga siljiydi. Ayniqsa, qishda janubi-sharqdan kirib keladigan sovuq havo oqimlari kuchli shamollarni yuzaga keltiradi. Yuqorida ta’kidlangan tor geografik yo‘lak — “Xo‘jand darvozasi” esa bu jarayonni yanada tezlashtiradi.

Bekobod shamoli tezligi bilan ham ajralib turadi. Odatda u 15–20 metr/soniya tezlikda esadi, ba’zan esa 40–45 metr/soniyagacha yetadi. Shamol odatda 2 kundan 5 kungacha davom etadi va asosan bahor hamda kuz fasllarida kuchayadi.

Kuchli shamolning eng katta salbiy oqibatlaridan biri — tuproq eroziyasi. Shamol yerning eng unumdor ustki qatlamini uchirib ketadi, tuproqdagi oziqa moddalari kamayadi. Bu esa qishloq xo‘jaligiga jiddiy zarar yetkazadi. Shuningdek, shamol ko‘targan chang havoni ifloslantiradi, ayniqsa sanoat hududlarida bu yanada xavfli tus oladi. Shamol tuproq namligini ham kamaytiradi, natijada yer tez quriydi va hosildorlik pasayadi. Ba’zan yangi tuproq qatlamlari paydo bo‘lsa-da, bu ko‘pincha mavjud unumdor qatlamning yo‘qolishi hisobiga yuz beradi.

Kuchli shamol paytida yo‘llarda harakatlanish qiyinlashadi va avariya xavfi ortadi. Ayniqsa yuk mashinalari uchun bu katta muammo hisoblanadi. Bundan tashqari, shamol aloqa tizimlariga ham zarar yetkazadi. Ba’zan signal sifati pasayadi yoki aloqa uziladi. Bu esa zamonaviy hayotda sezilarli noqulaylik va iqtisodiy yo‘qotishlarga olib keladi.

Umuman olganda, Bekobod shamoli hudud hayotining ajralmas qismi bo‘lib, uning ta’siri keng qamrovli. Shu bois Bekobod shamoliga qarshi quyidagi choralarni ko‘rish muhimdir:

1.Himoya o‘rmonzorlari (shamol to‘siqlari) barpo etish.

2.Tuproqni mustahkamlovchi agrotexnik usullarni joriy etish.

3.Chang va sanoat chiqindilarini nazorat qilish.

4.Shamol monitoringi va erta ogohlantirish tizimini rivojlantirish.

5.Transport infratuzilmasini moslashtirish.

6.Suv resurslarini samarali boshqarish.

7.Hududiy rejalashtirish va qurilish standartlarini takomillashtirish.

Bekobod shamoli — bu faqat tabiiy hodisa emas, balki boshqarilishi mumkin bo‘lgan xavf omilidir. Agar yuqoridagi choralar kompleks tarzda amalga oshirilsa, uning salbiy ta’sirini sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Eng muhimi, ekologik, texnologik va boshqaruv choralarini birgalikda qo‘llash orqali hududning iqtisodiy barqarorligini ta’minlash mumkin

Sevinch RAHIMOVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Huquq va jamiyat

SOLIQLAR SHUNCHAKI MAJBURIYATMI YOKI KELAJAK INVESTITSIYASI?

Universitetga kelishda har kuni tekis yo‘llardan yuramiz, chiroqli ko‘chalardan o‘tamiz va darslarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanamiz. Ammo hech o‘ylab ko‘rganmisiz, bularning barchasi qayerdan keladi? Ba’zilar buni “o‘z-o‘zidan bor narsa” deb o‘ylashi mumkin, aslida esa buning zamirida juda muhim tushuncha — soliqlar yotadi.

Biz iqtisodiyot darslarida “ijtimoiy shartnoma” degan iborani ko‘p eshitamiz. Bu juda oddiy: biz, ya’ni fuqarolar, daromadimizning bir qismini davlatga beramiz, davlat esa bu mablag‘lar evaziga bizga xavfsizlik, ta’lim va tibbiyot kabi sharoitlarni yaratib beradi. Bu xuddi biror xizmatga obuna bo‘lishga o‘xshaydi — xizmatdan foydalanish uchun to‘lov qilishimiz kerak bo‘ladi.

Keling, bir misol ko‘raylik. Tasavvur qiling, bir tadbirkor soliq to‘lashdan qochdi va pulini o‘zida qoldirdi. “Yaxshi-ku, puli ko‘paydi,” deb o‘ylash mumkin. Ammo millionlab odamlar shunday qilsa, ko‘chalardagi chuqurlar tuzatilmaydi. O‘sha tadbirkor esa ertaga mashinasi chuqurga tushib buzilsa, ta’mirlashga soliqdan “tejab qolgan” pulidan ko‘ra ko‘proq sarflashga majbur bo‘ladi.

Iqtisodchilar buni “multiplikator effekti” deb atashadi. Ya’ni, soliqqa to‘langan bir so‘m pul ham zanjir bo‘lib aylanib, jamiyatga bir necha baravar ko‘p foyda bo‘lib qaytadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 63-moddasida soliq to‘lash har bir fuqaroning burchi ekani aniq belgilab qo‘yilgan. Bu shunchaki “xohlasang to‘la” degani emas, balki jamiyatning teng huquqli a’zosi bo‘lish uchun qo‘yilgan muhim talabdir.

Do‘stlar, soliqdan qochish — bu faqat davlatni aldash emas, balki o‘z kelajagimizni, ukalarimizning ta’limini va ota-onamizning sog‘lig‘ini xavf ostiga qo‘yishdir. “Bugun tejalgan pul” ertaga bitmagan ko‘priklar yoki sifatsiz tibbiyot shaklida qarshimizdan chiqadi.

Biz zamonaviy va mas’uliyatli avlod bo‘lishimiz kerak. Soliq to‘lash madaniyatini o‘zimizdan boshlasak, ertaga farzandlarimizga yanada qudratli va barqaror davlatni qoldiramiz. Unutmang, har bir to‘langan soliq — bu kelajak poydevoriga qo‘yilgan bitta g‘ishtdir.

Valisher ABIROV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti,
Abdulvohid TOSHMURODOV,
TDSHU Iqtisodiyot yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Bilasizmi?!

Kundalik hayotimizda deyarli har kuni biz oldi-sotdi munosabatlariga kirishamiz. Aynan sotuvchi va iste’molchi o‘rtasidagi munosabatlar “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun bilan tartibga solinadi. Demak, ushbu qonunga muvofiq siz iste’molchi sifatida qanday huquqlarga egaligingizni bilasizmi?

ISTE’MOLCHI SIFATIDA SIZ QANDAY HUQUQLARGA EGASIZ?

Birinchidan, agar sizga tovar haqida noto‘g‘ri ma’lumot berilgan bo‘lsa va bu iste’molchi uchun zarur xususiyatlarga ega bo‘lmagan tovar (ish, xizmat) sotib olinishiga sabab bo‘lsa, iste’molchi shartnomani bekor qilish hamda yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishga haqlidir.

Ikkinchidan, sotib olingan tovar (ish, xizmat) dan ko‘zlangan maqsadda foydalana olmaslik holatida iste’molchi tovar (ish, xizmat) haqidagi tegishli ma’lumotni qisqa muddatda (ko‘pi bilan 3 kun ichida) berilishini talab qilishga haqlidir. Agar sotuvchi ushbu muddatda ma’lumot bermasa, iste’molchi shartnomani bekor qilish va yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishi mumkin.

Uchinchidan, agar tovar iste’molchining hayoti, sog‘lig‘i yoki mol-mulkiga zarar yetkazsa, ishlab chiqaruvchi, sotuvchi va ijrochiga nisbatan qonunda belgilangan tartibda talab qo‘yishga haqlidir.

Endi nuqsonli tovar sotilgan holatda iste’molchining huquqlariga to‘xtalamiz. Bunday vaziyatda iste’molchi quyidagi huquqlarga ega:

Birinchidan, tovarni ayni shunday markadagi tovarga almashtirib berishni talab qilish.

Ikkinchidan, nuqsonli tovarni boshqa markadagi tovarga almashtirishni talab qilish (bu holatda hisob-kitob qayta amalga oshiriladi).

Uchinchidan, agar iste’molchi tovar nuqsonlarini o‘z hisobidan bartaraf etsa, sarflangan xarajatlarni qoplab berishni sotuvchidan talab qilishga haqlidir.

To‘rtinchidan, xarid narxini nuqson darajasiga mutanosib ravishda kamaytirishni talab qilishi mumkin.

Bunda muhim qoida mavjud: nuqsonli tovarning kafolat muddati yoki yaroqlilik muddati hali amalda bo‘lishi kerak. Agar bunday muddat belgilanmagan bo‘lsa, iste’molchi ushbu huquqlardan tovar (ish, xizmat) xarididan so‘ng 6 oy davomida foydalanishi mumkin. Ko‘chmas mulk bo‘yicha esa mazkur huquqlar obyekt iste’molchiga topshirilgan paytdan boshlab 2 yil davomida amal qiladi.

Iste’molchi tovarni almashtirib berishni talab qilsa, ayni shunday markadagi tovar mavjud bo‘lsa, u 7 kun ichida almashtirilishi lozim. Agar qo‘shimcha tekshirish talab etilsa, bu muddat 20 kungacha uzaytirilishi mumkin. Agar ayni shunday markadagi tovar mavjud bo‘lmasa, iste’molchi talab qo‘ygan kundan boshlab 1 oy ichida almashtirish amalga oshiriladi. Uzoq va chekka hududlarda esa bu muddat 2 oygacha cho‘zilishi mumkin.

Nuqsonlarni bepul bartaraf etish holatida esa sotuvchi iste’molchi talab qilgan kundan boshlab 20 kun ichida, ishlab chiqaruvchi esa 10 kun ichida nuqsonlarni bepul tuzatishi shart.

Iste’molchining eng muhim huquqlaridan biri — sudga murojaat qilish huquqidir. Ya’ni iste’molchi o‘ziga yetkazilgan zararni undirish uchun sudga shikoyat qilishi mumkin. Bundan tashqari, iste’molchilar o‘z huquqlarini birgalikda himoya qilish maqsadida jamoat birlashmalari tuzishga ham haqlidirlar.

Umuman olganda, muhtaram Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosat natijasida bugun iste’molchilar huquqlarini himoya qilishning yangi mexanizmlari joriy etilmoqda. Bu esa iste’molchilarga keng imkoniyatlar va farovon hayot tarzini yaratadi.

Jo‘rabek URUNBOYEV,
Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy huquq fakulteti 1-bosqich talabasi

Mehmonga bop mezbon

“BICHMA, TAKA, ESHAK TO‘QIMI VA NO‘XTA...”



1960-yillarda endigina mashhurlashayotgan adib Pirimqul Qodirov do‘sti Odil Yoqubovni hamroh qilgancha tog‘li qishloqda yashaydigan xolasinikiga — bo‘lajak ijodkor G‘oyibnazar Ernazarovning onasi yashaydigan qishloqqa mehmonga boribdi.

O‘ttiz yoshlar chamasidagi bu “toshkanlik” yosh yozuvchi mehmonlar bilan gurung qilish uchun qo‘ychi pochchasi orqali qishloqdagi suruv ortidan yuradigan kishilarni yig‘ib kelgan ekan. Tog‘li hududda baland ovozda gaplashish va bahslashishga odatlanib qolgan mezbonlar esa o‘zaro “bichma, taka, to‘qim va no‘xta”dan boshqa mavzuda gaplashmay, tortishib-talashib, ikki adibning “qulog‘ini qoqib qo‘liga berishibdi”.

(Shu qishloqlik faxriy o‘qituvchi Yusuf Ahmadning hikoyasi va xulosasi: uy egasi qishloqdagi muallimlarni ham taklif qilganida, suhbatning mavzusi ham, mazasi ham boshqacha bo‘lardi. Mehmon oldiga dasturxon yozish bilan birga, uning didiga mos suhbatdosh topish ham mezbonga bog‘liq.)

Shoir G‘oyib Nazarning o‘g‘li Ortiqboy esa yuksak saviyali neyroxirurg. Shunga qaramay, imkon topishi bilan qavm-qarindoshlarning to‘ylariga qatnashish uchun Toshkentdek joydan yuz-ikki yuz kilometr yo‘l bosib, ikki-uch soatga bo‘lsa ham kelib ketadi.

Biroq Ortiqboyni ko‘rganlar darrov o‘z dardini ayta boshlaydi:

— “Sochim to‘kilyapti, nima qilay?”

— “Kechasi ko‘p hojatga chiqaman, davosi bormi?”

— “Xotinga yaramay qoldim...”

Ortiqboy ham har qancha odobli bo‘lmasin, bunday paytda qat’iy javob beradi:

— “Bu yerga diydor uchun kelganman, kasal qabul qilgani emas!”

...Ha, ayrim odatlar hali-hanuz o‘zgargani yo‘q.

Olloyor BEGALIYEV

Sog'inch



SUKUNATDAGI SUHBAT

Hayotda shunday vaziyatlar bo‘ladiki, atrofingda sodir bo‘layotgan hodisalardan yuz o‘girging, senga aytilayotgan gaplardan quloq berkitging, ko‘zlaringni yumib, butun borliq uzra qopqoqdek yoyilgan osmon-u falakka qanot chiqarib uchging, bor ovozing bilan baqirging keladi. Ichingdagi his-tuyg‘ular bir-biri bilan go‘yo bahslashib, mushtlashayotgandek, yana bir oz indamasang ko‘ksingni yorib ketadigandek tuyuladi.

Ha, bahor fasli o‘zgacha. Atrof yashillikka burkangan, lolaqizg‘aldoqlarning g‘unchalari ochilay deb turibdi. Shamol u yoqda tursin, shabadaning ham izi sezilmaydi. Atrof sokin. Jimjitlik. Bor ovozda baqirgim keldi-yu, o‘zimni arang tutib, gap boshladim.

— Siz bilan ko‘rishmaganimizga ham qariyb yigirma yil bo‘libdi. Bilasizmi, men sizni har kuni, har daqiqa sog‘inaman. Biror muammoga duch kelsam, maslahatingiz kerak bo‘lib qoladi. Har yoqdan sizni qidiraman. Ayniqsa, quyosh ufqqa bosh qo‘yib, oqshom cho‘kkan mahal bog‘ tarafga termulaman. Yo‘q, hech kim ko‘rinmaydi. Tag‘in bir-ikki qadam tashlayman. Shitir-shitir etgan ovoz eshitiladi. Uni qadam tovushiga o‘xshataman, ammo boshqa narsa bo‘lib chiqadi...

Esingizdami? Bolaligimizda kech tushgan mahal ishdan qaytardingiz. Biz sizni intizor bo‘lib kutardik. Ko‘ringan zahotingiz yugurib borib, oyog‘ingizni quchoqlab olardim. O‘sha paytlar bo‘yim ham ancha past edi. Bugun ham sizni bag‘rimga bosgim, quchoqlagim keldi...

Muammolar girdobidaman. Kimdan maslahat olishni, dardimni kimga aytishni bilolmayman. Kimga qanday tuyular bilmadim-u, ammo oxirgi paytlarda odamlarning bir-biriga bo‘lgan ishonchi so‘nib borayotgandek. Rostlarning o‘rnini yolg‘onlar egallab olayotganday go‘yo. Siz nima deysiz? Hech bo‘lmasa qulog‘imga sekingina pichirlab qo‘ying...

Men sizni juda sog‘indim, ota...

Har doimgidek sado chiqmadi. Sukunat. Jimjitlik...

Atrof yam-yashil, ammo qalbim ko‘chalaridagi daraxtlarning barglari hamon to‘kilmoqda. Atrofda esa hanuz sukunat hukmron.

Mirzabek SHERBEKOV

Bir lahzalik haqiqat

SHUKR

Ertalab uyg‘ondim. Turib qarasam, ko‘zoynagim yerda yotibdi. Singan. Taqib bo‘lmaydi. Kayfiyatim buzildi. Go‘yo hayotning mendan adovati bordek, barcha muammolar birdaniga yopirilib kelayotgandek tuyuldi. Karavotda uzoq o‘yga tolib o‘tirib qoldim.

Yaqinda imtihonlar. Tayyorgarlikka esa vaqt juda oz. Yetarli ball to‘play olmasam, ahvolim nima kechishini o‘ylab yuragim siqiladi. Ijarachi opa ham ijara to‘lovi vaqti kelganini eslatib ketgan. Ko‘chaga chiqish uchun kiyimlar dazmollanmagan, svet ham yo‘q...

Bir amallab ko‘z shifokori qabuliga bordim. Bir haftadan buyon ko‘zim atrofiga ukollar olyapman. Azob... Shishgan ko‘zlarim bilan fizioterapiya xonasiga kirib ketaman.

Yangi ko‘zoynak tayyor bo‘lishi uchun ancha vaqt kerakligini aytishdi. Poliklinikada yuragim siqilib, ko‘chaga chiqib ketdim. Yo‘ldan o‘tishga ikkilanib turdim. Svetafor uzoqda, qaysi chiroq yonayotganini aniq ajratish qiyin edi.

Yo‘ldan o‘tib, “Korzinka”ga kirdim. Narsalarni ko‘rish uchun deyarli yonigacha borishimga to‘g‘ri kelardi. Uzoqdan biror buyumni ko‘rib yaqinlashsam, u boshqa narsa bo‘lib chiqardi. Odamlar xuddi menga qarayotgandek tuyulardi. Oxiri asablarim chidamadi. Hech kim bo‘lmasa ham, ichimdagi hamma alamni chiqarib baqirgim keldi. Xo‘rligim keldi.

Shu ahvolda turganimda, atrofdan kimningdir yordam so‘ragan ovozi eshitildi.

— Assalomu alaykum, yaxshimisiz? Qanday yordam bera olaman?

— Voy, sizni menga Xudo yubordi! O‘zim bilan olib yuradigan itimni yo‘qotib qo‘ydim, qayergadir ketib qoldi. Telefondan qizimga qo‘ng‘iroq qilib bering, kelib meni olib ketsin...

Ayolning ko‘zlari butunlay ojiz edi...

Manzilini so‘rasam, uyi yaqin atrofda ekan. O‘zim kuzatib qo‘ya qoldim.

Qaytayotganimda esa ertalabki hissiyotlarim butunlay o‘zgardi. Aslida naqadar baxtli ekanimni his qildim. Har holda ko‘zlarim bilan yorug‘ olamni ko‘ryapman. Tabiatni, ranglarni, mashinalarni, baland binolar va daraxtlarni ilg‘ay olyapman. Oyoq-qo‘llarim sog‘-salomat, bemalol yuribman.

To‘g‘ri, kimningdir baxtsizligi boshqalarni baxtli qilib qo‘ymaydi. Ammo u insonni shukr qilishga, o‘zidagi ne’matlarning qadriga yetishga undaydi.

Ich-ichimdan allanechuk to‘lib ketdim. Chuqur nafas olib, yangi tayyor bo‘lgan ko‘zoynagimni olish uchun yo‘lga tushdim. Shu payt oyim qo‘ng‘iroq qilib qoldi. Yo‘l-yo‘lakay u bilan maroqli suhbatlashib, yo‘limda davom etdim.

Sevinch ABSATTAROVA

Adabiy tahlil

“DUNYONING ISHLARI” — ONA MEHRI AKS ETGAN ASAR


“Dunyoning ishlari” — o‘ndan ortiq roman va qissalar, bir-biridan ta’sirchan hikoyalar hamda dramatik asarlar muallifi O‘tkir Hoshimov qalamiga mansub mashhur asardir. Adib asarning 2005-yilgi nashrida shunday ta’rif beradi: “Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasida eng mo‘tabar, aziz odam — onam siymosi bor. Faqat ba’zilarning ismi o‘zgargan xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihatdan onamga bog‘langan”.

O‘tkir Hoshimov — O‘zbekiston xalq yozuvchisi, XX asr o‘zbek adabiyotining o‘ziga xos uslub va mavqega ega ijodkori. Uning asarlari soddaligi, xalqchilligi bilan ajralib turadi. “Dunyoning ishlari” ham ana shunday xalq qalbiga yaqin asarlardan biridir. Ushbu asar 2024-yilda tarjimon Mark Ris tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan.

Dunyoda yashar ekanmiz, bizni yo‘qdan bor qilgan, tarbiyalagan, ulg‘ayishimizga sababchi bo‘lgan eng ulug‘ inson — ota-onamiz ekanini unutmasligimiz kerak. Ular o‘zlarini unutib, farzandlari uchun yashaydilar.

“Dunyoning ishlari” aynan ona haqida bitilgan eng ta’sirli asarlardan biridir. Unda onalar hayotiga oid ko‘plab kichik-katta hikoyalar, novellalar berilgan. Ushbu asarni o‘qigan har bir inson ba’zi joylarda yig‘laydi, ba’zi joylarda esa kuladi. Asar shukronalik tuyg‘usini uyg‘otadi va onaga bo‘lgan munosabatni yanada yuksaltiradi.

Menga eng kuchli ta’sir qilgan hikoyalar “Iltijo” va “Gilam paypoq” bo‘ldi. “Iltijo” hikoyasini o‘qiganimda adibning onasiga bo‘lgan mehrini, sog‘inchini chuqur his qildim. U asosan onasining qabriga borgani, uning xotirasi bilan bog‘liq tuyg‘ularni ifodalaydi. Hikoya nihoyatda samimiy va




ta’sirli yozilganki, uni o‘qigan kishi beixtiyor ko‘z yosh qiladi. Yig‘idan so‘ng esa qalb yengillik topadi. “Iltijo” hikoyasi shunday boshlanadi: “Oyi, men keldim... Eshitayapsizmi, oyi men keldim...” Bu satrlar qalbni larzaga soladi.

Asarni o‘qib shunday xulosaga keldim: ota-onani ranjitgan inson hech qachon chinakam baxtga erisha olmaydi. Hayotda ham, adabiyotda ham bu haqiqat ko‘p bor tasdiqlanadi.

Gulhayo ABDUQAHHOROVA

Hikoya

YUK MASHINASIDA



O‘rxon KAMOL

O‘n olti kishiga mo‘ljallangan yuk mashinasida yigirma besh yo‘lovchi tiqilib-siqilib o‘tirardik. Son-sanoqsiz do‘ngliklar, qiyaliklar va keskin muyulishlarni ortda qoldirgan mashina amal-taqal sudralib borardi: ichak-chavog‘i titrab-qaqshar, g‘ijirlar, radiatordagi suv esa biqir-biqir qaynab ketgandi.

Yomg‘irlar mavsumidan keyin kuydirguvchi may oftobi Chuqurovaning qizil tuproqli yerini shunday qizdirardiki, yo‘l bo‘yidagi pastak butalar ham, o‘t-maysalar ham, o‘ng tomonimizdan oqib o‘tayotgan daryo ham, moviy osmonda parvoz qilayotgan uzunqanot qushlar ham jaziramadan lohaslanayotgandek ko‘rinardi.

O‘tirganlardan faqat kamina va o‘rta o‘rindagi yaltirbosh dallolgina bo‘yinbog‘ taqib olgandik. Qolgan yo‘lovchilar – asosan dehqonlar. Kim ketmon dastasi, kim belkurak sotib olgani shaharga ketmoqda, yana kimdir paxta chopig‘i paytida koranda bo‘lib yollanishni o‘ylaydi.

Dallolning jag‘i bir daqiqa ham tinmaydi. Tamaki tutuni va turib qolgan eski pishloq anqiyotgan yuk mashinasida u xuddi xirapashshadek g‘ing‘illardi. U tishida yong‘oq chaqar, dam-badam baquvvat tishlarining oqini ko‘rsatib xaxolar edi. Birpasdan keyin ro‘parasida o‘tirgan jajji qizaloqqa tegisha boshladi:

– Kelishdikmi? Menga qiz bo‘lasanmi? Senga o‘zim yangi ko‘ylak tikib beraman, chiroyli to‘g‘nog‘ich olib beraman, kinoga olib boraman.

Qizcha o‘n-o‘n bir yoshda edi. Quloqlarida qizil ko‘zli oddiy qalayi zirak yiltillardi. U g‘unchadek lablarida xushaxloqlik bilan kulib qo‘ydi, so‘ngra birdan jiddiy tortdi.

– Aytgin-chi, menga qiz bo‘lasanmi? – o‘zinikidan qolmasdi dallol. – Seni uyimga obketaman. Mening ka-a-attakon dang‘illama uyim bor. Innaykeyin sen qatori qizim ham bor. Arg‘imchoqdan sakraysizlar, beshtosh o‘ynaysizlar, halinchak uchasizlar...

– Jag‘ingizni bekorga charchatmang, afandim, – dedi qizchaning yonida o‘tirgan ozg‘in, bug‘doyrang yigit. – Qishloq joy, o‘zingizdan qolar gap yo‘q... Shahar noniga bular to‘yishmaydi, suviniyam ta’blari tortmaydi, balchiq bosmagan bo‘lsa, hidiyam... Bular shunaqasiga ko‘nikib ketishgan. Nahotki bilmasangiz?

– O‘zing qayerdansan? – deb so‘radi yon o‘rindiqda o‘tirgan dehqon. – Shaharlik yugurdaklardan bo‘lsang kerak, hoynahoy?

– Yo‘q, men ham dehqonman.

– Dehqon bo‘lsang, nimaga: “Ko‘nikib ketishgan”, deyapsan? O‘zing-chi, ko‘nikmaganmisan?

– Men ham ko‘nikkanman... Shunchaki gap kelganda aytdim-qo‘ydim-da...

– Biz ham yaxshi narsalarning farqiga boramiz, – dedi alamidan dehqon, – faqat qo‘limizga tushmaydi-da... Shundoq ekan, toza suv turganda, sassiq suvni eshak ham ichmaydi... Eh, seni qara-yu, o‘g‘lim...

– Bu qizaloq singlingmi? – deb so‘radi dallol.

– Yo‘q, – deb javob qildi yigit, – singlim emas, qo‘shnim...

– Qayoqqa ketyapsizlar?

– Shaharga. Mana, yonimda oyisiyam yotibdi...

Mashinada qizil zirakli qizdan bo‘lak ayol zoti yo‘q edi. O‘girilib qaradim. Yigitning yonida bir uyum latta-putta yotardi.

– Qani? – hayronlandi dallol. – Yoningda hech kimni ko‘rmayapman.

Yigit indamadi-da, latta-puttalarni ochdi. Uvada ichidan ter bosgan peshonaga yopishib qolgan bir tutam qora kokilli bosh ko‘rindi. Ayolning boshi o‘rindiqda, tanasi esa pastga sirg‘alib tushgan edi. Ikkita qora doira kirtayib cho‘kib ketgan ko‘zchanoqdan bir nuqtaga tikilib turardi. Bu surobi tortilgan sariq yuz, qirg‘iyburun, ajin bosgan terini ko‘rgan odam beixtiyor ijirg‘anardi.

– Unga nima bo‘lgan? – sekin so‘radi dallol.

– Sil, – dedi yigit. – O‘tgan kuni apparatga tushirgani oborgandim. Bugun bo‘lsa shaharga obketyapman, faqat behuda uringanim qoladimi, deyman-da, hech qanaqangi umid yo‘q. Dori yozib berishdi, lekin doriga pul qayoqda? Kasalxonada bor, deyishdi. Bordik. Borsak, hali ariza, hali ma’lumotnoma yozdirib kel, deydi... Safsatabozlar.

Yigit ayolni uvadalar bilan yopib qo‘ydi.

– Eri bultur xuddi shu vaqtda qazo qildi... Allohdan o‘zga madadkorlari yo‘q bularning. Agar men ham chekinsam...

– Endi odam bo‘lmaydi, – dedi dallol. – Ahvoliga qaragin...

Dallol engashib yigitning qulog‘iga bir nimalarni shipshidi. Yigit esa kiftini uchirdi:

– Menga-ku baribir, afandim... O‘zi nima derkin, onasi-chi... Agar rozi bo‘lsalar...

Dallol qo‘lini qizaloqning yelkasiga qo‘ydi:

– Menga qara, isming nima?

– Selvi...

– Qani, ayt-chi, Selvi, menga qiz bo‘lishni istaysanmi? Onangning ahvolini o‘zing ko‘rib turibsan, bugun bor, ertaga yo‘q. Albatta, Alloh shifosini bersin. Men senga chiroyli ko‘ylaklar tikib beraman, sochingga to‘g‘nog‘ich olib beraman. Bir o‘zing qolganingdan ko‘ra shunisi ma’qulroq-ku. Uvol ketmagin!

Qizcha mitti lablari bilan kulib eshitib turdi-da, keyin yana jiddiy bo‘lib oldi.

– Ayt unga, – dallol yigitga yuzlandi, – o‘zing ayt unga, bir o‘ylab ko‘rsin... O‘zing qara, onasi bugun bor, ertaga yo‘q... Qizcha qo‘lma-qo‘l bo‘lib, yomon yo‘lga kirib ketadi. Meni kattakon ishlarda ishlaydigan obro‘li tanish-bilishlarim bor. Biri sudya, biri do‘xtir, biri muhandis. Vaqti kelib men uni yaxshi ishga joylashtirib qo‘yaman, yegani oldida, yemagani ketida bo‘ladi, rosmana xonim afandiga aylanadi...

– Xudo haqqi, afandim, menga qolsa, ixtiyor o‘zlarida... Onasi bugun bo‘lmasa, erta-bir kun o‘ladi. Siz bilan ketsa, pul-mul ishlab topardi... Shunaqami, Selvi? Manavi amaki bilan ketasanmi?

Qizcha miq etmadi, boshini egib, qovoq-tumshug‘ini osiltirdi.

Dallol yeng shimarib ishga kirishdi:

– Onasidan so‘ra, onasidan!

– Hey, Sharifa, afandining nima deganini eshitdingizmi? Agar Selvini menga bersangizlar, savob ish qilaman, uni yaxshi joyga ishga kirgizib qo‘yaman, deyapti. Shunga nima deysiz? Siz bugun borsiz, ertaga esa yo‘q...

Bir uyum latta-putta tagida nimadir qimirladi, titragandek bo‘ldi. So‘ng haligi ayolning boshi ko‘rindi. Kosasi ichiga kirib ketgan qora ko‘zlar Selviga uzoq termildi va ikki tomchi yosh burishib-tirishgan yuziga dumalab tushdi.

– Nima deysiz? – takror so‘radi yigit. – Rozimisiz yo yo‘qmi?

Yigit ayol tomon engashdi, so‘ngra qaddini rostladi.

– Nima deyapti? – deb so‘radi dallol.

– Nimayam derdi, boyaqish? Bervor, deyapti...

***

Yuk mashinasi inqillab-sinqillab shahar ko‘chalaridan o‘tib, kirakash mashinalar turadigan yerda to‘xtadi. Hammamiz chang-chungga botib, o‘lgudek charchagandik. Yigit Selvining onasini mashinadan xuddi yosh bolani ko‘targandek opichlab oldi. Qizcha uning yonidan ketmasdi. Savdosi pishgan dallol qizchaning oldiga kelib, uning qo‘lidan tutdi, keyin yigitga o‘n lira uzatdi. Yigit pulni olgani zamon, Selvi dallolning qo‘lidan yulqinib chiqib, onasi tomon chopib ketdi. Dallolning yumaloq basharasi o‘zgardi. Qizchaga yaqinlashgandi, Selvi onasinig narigi tomoniga o‘tib oldi. Yigit esa sarosimalanib qoldi. Qo‘lidagi pulni g‘ijimlab, dam dallolga, dam qizchaga qarardi.

Nihoyat dallol Selvini qo‘lidan tutib olib, jahl bilan siltab tashladi:

– Onang seni menga topshirgandan keyin bu nima qiliq qilganing?! Seni qarayu!

Qizcha yana uning changalidan chiqib qochdi.

– Bormayman! – deb chinqirdi qizcha. – Bormayman, dedimmi, bormayman!

– Nega bormas ekansan?

– Bormayman!

– Men senga yangi ko‘ylak olib beraman, sochingga to‘g‘nog‘ich sotib olamiz... Maza qilib yashaysan, oyimqiz bo‘lasan...

Qizcha javob bermadi.

Dallol yigitga o‘girildi:

– Undan so‘ra-chi, nimaga borgisi kelmayaptiykin?

Yigit Selviga ikki-uch og‘iz so‘z aytdi. Qizcha nimadir deb javob qaytardi.

– Oling, – dedi yigit, – pulingizni qaytarib oling, og‘a. Bormayman, o‘zim ishlab pul topaman, deyapti. Shunday qilarkan...

– Nega bormaskan? Axir onasi bugun-erta o‘ladi-ku.

– Qaydam, shunaqa deyapti-ku.

– Nega bormas ekan-a?

– Endi, afandim, yuragi toshdan emas-da... Agar men ketsam, onamga kim suv tutadi, kim mehribonlik qiladi, axir, onam qurtlab ketadi-ku, deyapti...

Dallol qizchaga nafrat bilan qaradi. Keyin yigitning qo‘lidan o‘n lirani shartta yulqib olib, cho‘ntagiga soldi:

– Hah, yaramas qiz! Yaxshilikni bilmagan!

Beso‘naqay dallol qo‘lida semiz portfel bilan nari ketgach, dehqonlardan biri shunday dedi:

– Albatta, bilamiz, qilgan yaxshilingni qanaqasiga bilmas ekanmiz!.. O‘n lira evaziga bolani onadan ayirib olasan-u, keyin uni xo‘jayinlarga pullaysan, ular esa ko‘ngillari tusaganini qilishadi. Barakalla, Selvi qizim!

Selvining ziraklaridagi qizil toshlar charaqlab, quyosh nurlarida tabassum qilganday bo‘ldi.

Saidjalol SAIDMURODOV tarjimasi

YANGI BEKOBOD
Muassis: Bekobod tumani hokimligi

Bosh muharrir
Sarvinoz SHERALIYEVA

Manzilimiz:
"Zafar" shaharchasi, hokimiyat binosi, 3-qavat.
tel: (998) 55 902 59 94
elektron manzilimiz:
E-mail: yangibekobod@umail.uz

Toshkent viloyati Matbuot va axborot boshqarmasida 2011-yil 12-sentyabrda 03-023 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr ko'rsatkichi 7013.

Gazeta tahririyat kompyuter bazasida terilib, sahifalandi. Buyurtma № Adadi 1825 nusxa. "NISO NASHRIYOT VA MATBAA UYI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani,"Oq ota" Q.F.Y. Mash'al mahallasi, Markaz-1
Bosishga topshirish vaqti: 10:00.
Bosishga topshirildi: 11:00.

Sahifalovchi-dizayner
Shohida TO'RAQULOVA

ISSN 2091-5497